

**MAVZU: BOSHLANG'ICH QIDIRUV FAOLIYATI ORQALI MAKTABGACHA  
YOSHDAGI BOLALARDA JONSIZ TABIAT OBYEKLARI VA HODISALARI  
HAQIDA EKOLOGIK G'OYALARNI SHAKLLANTIRISH**

*Maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi d.Ph Akzamov V.B*

*Xolmatova Surayyo Sherali qizi, SamDU Maktabgacha va  
boslang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada MTT dagi bolalarda jonsiz tabiat obyektlari va hodisalari haqida ekologik g'oyalarni shakllantirish to'g'risida misollar orqali tushuntirilgan. Bu holat esa bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqishini orttirishimiz, g'amxo'rlik, tabiatga bo'lgan estetik didni shakllantirish kabi ekologik g'oyalarni rivojlantirib borishimiz zarur.

**Kalit so'zlar:** tabiat, jonsiz tabiat, obyekt, ekologik g'oya, metod, didaktik o'yinlar, oddiy tajriba.

Tabiat rang-barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Tabiat maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Bola tabiat haqidagi dastlabki bilimlarni ilk yosh davridan boshlab o'rgana boshlaydilar. Dastlab tabiat narsalar ikki qismdan: jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligini bilishlari kerak. So'ngra jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, tosh, havo, tuproqlar kabi jonsiz tabiat haqida tushunchalarga ega bo'ladilar va asta-sekinlik bilan buni anglay boshlaydilar. Bunda tarbiyachining roli katta. Tarbiyachi avvalo bolalarga jonli va jonsiz tabiat haqida bilim beradi va ularni sekinlik bilan murakkablashtirib borib, ular o'rtasidagi farqlarni ham ajratishni o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonsiz tabiat obyektlari va hodisalari haqida ekologik g'oyalarni shakllantirishda avvalo, bolalarga ob-havo holatini (sovut, issiq, iliq, quyoshli, bulutli, shamol esyapti, yomg'ir yog'yapti, do'l yog'yapti) suv va qorning ayrim xususiyatlarini (suv tiniq, qor yumshoq bo'lishi, undan qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynash mumkin va hokazo; qor quruq ham bo'ladi) anglashni o'rgatish, ayrim predmetlar suvda cho'kishini, ayrimlari cho'kmasligini: issiq kunda ko'lma suvi tez,sovut kunda sekin qurishini anglab olishlariga yordam berish, bolalarni tong, kunduz, kechqurun, kechasi, tushunchalari bilan tanishtirish, kun qismlarida insonlar va bolalar harakatlarida haqida suhbatlar o'tkazish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonsiz tabiat obyektlari va hodisalari haqida tanishtirishda turli xil metodlardan va didaktik o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Bunda avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqishini ham orttirish maqsadida ularda ko'proq kuzatish va oddiy tajriba metodidan foydalansak maqsadga muvofiqli. Chunki bola eshitgan narsasidan ham ko'proq ko'rgan va shu jarayonda o'zi qatnashgan muhitni yaxshiroq xotirasida saqlab qoladi. I.P Pavlov aytganidek " Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishini uyg'otadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir" deb hisoblaydi. Kuzatish metodida bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqish yoki bo'lmasa bog'cha maydonchasida o'ynatishdan foydalilanadi. Bunda bolalar qum bilan o'ynaydilar, toza havoni his qiladilar, shamolning esishini anglaydilar, toshlardan turli xil narsalar yasaydilar va boshqa. Bolalar bu jarayonni zo'r qiziqish bilan bajaradilar, bundan tashqari ular chiniqadilar hamda tosh, qum, loy bilan o'ynashda mayda qo'l motorikasi ham rivojlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga jonsiz tabiat haqida ekologik g'oyalarni o'stirishda oddiy tajribalardan ham foydalansak bo'ladi. Bu jarayonda bola o'zi qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolaga havo haqida tushuncha berishda ularga havoni hidsiz va ta'msiz ekanligi, hamma tirik organizm uchun havo kerakligi, o'simliklar va daraxtlar o'zidan kislorod (havo) chiqarishi, chuqur nafas olganimizda havoni yutishimiz va uni yengil chiqarish kerakligi haqida, havoni ushlab bo'lmasligi uni faqat his qila olishimiz mumkinligi haqida ekologik g'oyalarni berishimiz mumkin. Buni oddiy bir tajriba orqali ko'rishimiz mumkin. Oddiy sharni olib uni puflaymiz. Natijada sharning hajmi o'zgaradi. Buni bolalarga tushuntirishda sharning oldinga holatini eslatamiz. Sharning avvalgi holati yassi edi, keyin esa uni puflaganimizda shar asta-sekinlik bilan hajmini o'zgartirib yumaloq ko'rinishga keldi. Bunda sharga puflaganimizda sharning ichiga havo kirdi va sharning hajmi o'zgardi deb sodda tilda tushuntirishimiz va bu jarayonni o'zлari amalga oshirishi kerakligi haqida uqtirishimiz kerak. Bolalarga yanada tushunarli bo'lishi uchun yana tajriba o'tkazib ko'ramiz. Bu tajribaning nomi "G'arq bo'lish va ovqatlanish" deb nomlanadi. Tajribadan maqsad bolalarga ho'l mevalarda ham havo borligini o'rgatishdan iborat. Dastlab ikkita mandarinni yaxshilab yuvib olamiz va ulardan birini suvli idishga solamiz. Mandarinni qancha cho'ktirishga urinsak ham u cho'kmaydi. Keyingi mandarinning po'stlog'ini tozalaymiz va suvli idishga solamiz. Mandarin cho'kib ketdi. Nega u cho'kdi? Chunki mandarinning po'stlog'ida havo bor shuning uchun u suvga cho'kmadi. Bolalar bu tajribalar davomida o'zлari qatnashayotganligi sababli ularning yaxshiroq saqlanib qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak R. Tagor aytganidek: "Siz unga go'zallik tuyg'usini singdirmasdan turib, to'laqonli odamni tarbiyalay olmaysiz" .... Shunday ekan biz eng avvalo bolalarga tabiatga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ona Vatanga uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga o'rgatishimiz kerak. Ularning tabiatga bo'lgan qiziqishini orttirishimiz, g'amxo'rlik, tabiatga bo'lgan estetik didni shakllantirish kabi ekologik g'oyalarni rivojlantirib borishimiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O. Hasanboyeva, H. Jabborova, Z. Nodirova "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" Toshkent 2009-y
2. Grigoryans A.G "Tabiatshunoslikni o'qitish" T. 1992-y
3. A.Ahadov "Ekologik ta'lim tarbiya" T. 1997-y